UO‘K 821.512.133-193

IQTIBOS SAN’ATI VA INTERTEKSTUALLIK XUSUSIDA

Z.A. Mamajonov

Maqolada mumtoz she’riyatda keng qo‘llangan she’riy san’atlardan biri – iqtibos san’atining o‘ziga xos jihatlari, mazkur san’atning she’riy misralar badiiyatining yuksalishidagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Qur’oni karim oyatlari, hadisi qudsiy va hadislarda tilga olingan g‘oyalarning she’riyatga ko‘chishi masalasi tahlil qilingan. Mumtoz adabiyotdagi intertekstuallikning o‘ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Mavzu yuzasidan bildirilgan fikrlarni asoslash uchun Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Mashrab, Huvaydo baytlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *intertekstuallik, intertekst, podtekst, mumtoz she’r, she’riy san’at, iqtibos, Qur’oni karim oyatlari, hadisi qudsiy va hadis*.

В статье речь идёт о специфических особенностях искусства цитации, одного из широко применяемых в классической поэзии искусств, о месте и значении данного искусства в повышении художественности поэтических строк. Проанализирована проблема переноса идей, упомянутых в аятах Корана, хадиси кудси и хадисах, в поэзию. Изложены специфические особенности интертекстуальности классической литературы. Для обоснования взглядов по теме использованы бейты таких поэтов, как Джалалиддин Руми, Алишер Навои, Машраб, Хувайдо.

Ключевые слова: *интертекстуальность, интертекст, подтекст, классическое стихотворение, стихотворное искусство, цитата, аяты Корана, хадиси кудси и хадисы.*

Borliqdagi har bir katta va kichik mavjudliklar bir-biri bilan o‘zaro dialektik aloqadadir. Shu bilan birga, ular bitta umumiy, yaxlit qonuniyat asosida harakatlanadi. Xuddi shuningdek, mana shu borliq haqidagi bilimlar ham turli zamonlarda turlicha shakllangan, kishilar turlicha tasavvurlar, turlicha mezonlar asosida borliqni tanigan. Borliq haqidagi tasavvurlar va to‘plangan bilimlarning ham albatta bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi tabiiy. Kishilarning borliq haqidagi tasavvurlari hosilasi bo‘lgan obrazli tafakkur mahsullari – ijodkorlarning o‘y-kechinmalari, his-tuyg‘ulari ifodasi sifatida paydo bo‘lgan badiiyat namunalari ham hamisha bir-biri bilan uzviy aloqada, bir-birlari bilan bir umumiy maxrajga ega deyish mumkin. So‘z san’ati paydo bo‘lgandan buyon borliq va tiriklik xususida tilga olinmagan mavzu qolmagan hisob. Demak, bu xususda aslida hamma gap aytib bo‘lingan. O‘sha hamma aytib bo‘lgan gapni hech kimga o‘xshamagan tarzda bayon qila olish ijodkorning mahoratini belgilab beradi. Fikrdan fikr tug‘iladi deganlaridek, bir shoirning aytgani boshqa bir shoirga yangicha aytish uchun turtki bo‘lishi mumkin. Biroq salafi aytgan fikrni ayni shaklda takrorlash ijodkorlik emas. Demak, an’anadagi mavzuga qo‘l urayotgan shoirning oldida bir necha mas’uliyat turadiki, bularning eng muhimi salafini aynan takrorlamaslik bo‘lsa, ikkinchisi – salafidan o‘tkazibroq, undan ko‘ra ohorliroq ifoda yo‘sinini topishi lozim bo‘ladi. An’anadagi mavzuda yangicha ayta olish uchun esa juda keng dunyoqarash, katta bir mahorat, ijodkorlik kerak bo‘ladi. Mana shu takrorlanayotgan fikr – mavzu ayni intertekstullikni yuzaga keltiradi. Intertekstuallik atamasi turli davrlarda turlicha anglanib kelingan. Jumladan, “postrukturalistlar intertekstuallikni g‘oyat keng tushunishadi: adabiyot, madaniyat, jamiyat, tarix, inson – bularning bari matn, bari matn tarzida o‘qilishi va uqilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, insoniyat madaniyati to‘laligicha bitta intertekst sifatida tushuniladiki, u yangi yaratilayotgan har qanday matnga asos (podtekst) bo‘lib xizmat qiladi” [1. B. 119]. Demak, borliqdagi barcha voqea-hodisalar u haqda yaratilgan barcha ilmiy yoki ijodiy ishlar uchun asos (podtekst) hisoblanadi. Bir paytning o‘zida mazkur ilmiy yoki ijodiy ishlarning barchasi bir-biri bilan ham intertekstual aloqadadir. Ko‘rinadiki, garchi “in-

tertekstuallik” degan atama paydo bo‘lganiga u qadar ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, bu hodisaning o‘zi aslida juda qadimiydir. Modomiki, “adabiyot, madaniyat, jamiyat, tarix, inson – bularning bari matn, bari matn tarzida o‘qilishi va uqilishi mumkin” [1. B.119] ekan, demak, intertekstuallikning yoshini ham, mantiqan, “adabiyot, madaniyat, jamiyat, tarix, inson” tushunchalari bilan teng deyish mumkin. Intertekstuallik atamasini fanga fransuz filologi Yu.Kristeva kiritganligi aytiladi. Unga ko‘ra, “har qanday matn avval mavjud bo‘lgan matnlarni transformatsiya qilgan holda o‘ziga singdirgan sitatalar majmuidir” [1. B. 119]. Bu fikrdan kelib chiqadiki, aslida ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiyat namunalarining hech biri yangilik emas, ular boshqa bir matn yoki matnlardan olingan sitatalardir. Biroq agar mazkur fikrni mutlaq haqiqat deb qabul qiladigan bo‘lsak, badiiy ijod jarayoni – voqelikka munosabatni yangicha ifodalashga, ohorli badiiyat namunalarini yaratishga, his-tuyg‘u va kechinmalarni o‘ziga xos tarzda bayon etishga bo‘lgan ehtiyoj yo‘qqa chiqishi mumkin. Shunday bo‘lsa ham, umuman olganda, ijod jarayonida bir-biriga ergashish, o‘zaro ta’sir, turli an’anaviyliklarning mavjudligi bor gap. Jumladan, mumtoz adabiyotda ham keng tarqalgan ayrim janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari yoki ba’zi badiiy tasvir vositalarining mohiyati, adabiy ta’sir jarayoni yoki sayyor syujet tushunchalari va boshqa turli an’anaviyliklar borki, ular yo mohiyatan intertekstuallik asosida yuzaga keladi, yoki intertekstuallikning turli ko‘rinishlaridir. Bundan tashqari, Sharq she’riyatiga xos bo‘lgan axloq-odob masalalarining o‘ziga xos targ‘ibi, ma’naviyatga aloqador masalalarning turli ko‘rinishlardagi badiiy talqinlari kabilarda ham aksar hollarda bir-biriga juda yaqin mavzuda gap ketadi va bular ham, mantiqan, intertekstuallikning asar mavzusi bilan bog‘liq ko‘rinishlaridir. Bir xil yoki bir-biriga yaqin mavzuda aytilayotgan fikrlarning o‘ziga xos yangicha ifodasi hamda ayni ijodkorning badiiy mahorati masalalari o‘sha an’anadagi mavzularning turlicha jarang topishini ta’minlaydi, natijada har safar yangi bir badiiyat namunasi paydo bo‘laveradi. Ya’ni bir shoir murojaat qilgan qaysidir masalani boshqa bir shoir ham tilga olar ekan, salafiga o‘xshamagan ifoda yo‘sinini topishga, o‘zigacha aytib bo‘lingan fikrga yangicha jilo berishga harakat qiladi. Shart shuki, yuqorida aytilganidek, ijodkor hammaga ma’lum bo‘lgan mavzuda “o‘z so‘zini ayta olishi” lozim.

An’anadagi mavzuga o‘zgacha jilo berishda badiiy tasvir vositalari – she’riy san’atlar ijodkorga yangicha aytish imkoniyatini yaratishi, yaratilayotgan asar uchun o‘ziga xos bezak vazifasini o‘tashi mumkin. Ilmi bade’ obyekti bo‘lgan she’riy san’atlar orasida shundaylari borki, ularning qo‘llanishi jarayonida shoir fikrni dalillash, izohlash maqsadida boshqa bir matnga murojaat qilishi – aynan keltirishi, shaklini o‘zgartirgan holda qo‘llashi yoki ishora qilishi mumkin. Shu kabi she’riy san’atlarning aksariyati aynan matnlararo aloqa – intertekstuallik asosida yuzaga keladi. Shulardan biri iqtibos san’ati bo‘lib, unda shoir fikrni dalillash, izohlash uchun Qur’oni karim suralari yoki hadislarga murojaat qiladi. Atoulloh Husayniy iqtibosni: “Qur’on yo hadisdin bir nimani aning Qur’on yoki hadisdin oling‘anig‘a ishora bo‘lmag‘an tarzda kalomg‘a kiritmakdin iborattur...” [2. B. 242] – deya ta’riflaydi. Mazkur ta’rifga ko‘ra, iqtibos bo‘lishi uchun uni Qur’on yoki hadisdan olinayotganiga ishora qilmagan holda kalomga kiritish kerak bo‘lsa ham yoki keltirilayotgan iqtibosning manbasiga ishora qilinmasa ham, islomning muqaddas manbalaridan xabardor o‘quvchi uchun unda ishlatilayotgan mohiyatni anglab olishga kifoya qiladigan darajadagi matnda mavjud bo‘lgan kalit so‘zlar yoki ilgari surilayotgan g‘oya kabilar orqali ishora obyektini topib olish mumkin bo‘ladi. Ushbu fikrlarni Alisher Navoiyning quyidagi mashhur baytini sharhlash orqali asoslasak:

Kimki bir ko‘ngli buzuqning
xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron o‘lsa,
obod aylagay [3. B. 626].

Mazkur baytning sharhi uchun bir nechalab asos, manba keltirish mumkin. Baytni izohlash jarayonida Navoiyning mazkur misralarni shunchaki shoirona ilhom bilan to‘qib aytmaganiga, unga bir nechta omillar asos (podtekst) bo‘lganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Jumladan, quyidagi qudsiy hadislarda aytiladi: “Men sizlarning na suratlaringizga, na chiroylaringizga qarayman. Balki qalblaringizga nazar solaman va sizlardagi yaxshi xislatlardan rozi bo‘laman” [4. B. 9]. Yana bir o‘rinda o‘qiymiz: “Albatta Men

ko‘z ochib-yumguncha ham qalbingdan g‘ofil emasman. Albatta Men qalblarni bilguvchi Zotman” [4. B. 13].

Bilamizki, Hadisi qudsiyda Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam Alloh taoloning aytgan gaplarini o‘z iboralari bilan naql qiladilar. Hadis ulamolari istilohida: “Bizga Nabiy sallallohu alayhi vasallamdan naql qilingan va Alloh taologa isnod berilgan hadis “Hadisi qudsiy” deyiladi”. Ya’ni Hadisi qudsiyning ma’nosi Alloh tarafidan, lafzi esa Nabiy sallallohu alayhi vasallam tarafidan bo‘ladi. Yuqorida keltirilayotgan qudsiy hadislardan anglashiladiki, Olloh hamisha kishilarning qalbiga nazar solib, undan voqif bo‘lib turadi. Jaloliddin Rumiyning quyidagi mashhur fikrini ham yuqoridagi qudsiy hadislarning sharhi deyish mumkin: “Eng buyuk haj bir ko‘ngilga yo‘l topib kirishdir. Bir ko‘ngil yuzlarcha Ka’badan go‘zaldir. Ka’ba hazrati Ibrohim Halilulloh qurgan imorat bo‘lsa, ko‘ngil Aziz va Jalil bo‘lgan Alloh taoloning nazargohidir” [5. B. 329]. Bu xususda yana Navoiyning o‘zida shunday misralarni o‘qiymiz:

Ka’baki, olamning o‘lub qiblasi,
Qadri yo‘q andoqki, ko‘ngul ka’basi.
Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri xoliqqa erur jilvagoh [6. B. 74].

Ya’ni, garchi xaloyiq uchun sajdagoh bo‘lgan Ka’ba butun olamning qiblasi bo‘lsa ham, ko‘ngil ka’basi oldida uning qadri yo‘qdir. Chunki Ka’ba xaloyiqqa – yaratiqqa sajdagoh bo‘lsa, ko‘ngil xoliqqa – yaratuvchiga jilvagohdir. Navoiy baytida bir ko‘ngli buzuq, dili vayron odamning qalbiga xursandlik olib kirish vayron bo‘lgan Ka’bani obod qilishga tenglashtirilayotgan bo‘lsa, xuddi shu fikrni avvalroq Umar Hayyom “Bir g‘arib ko‘ngilni qila olsang shod, Yaxshidir yer yuzin qilgandan obod” deya kengroq ifodalagan edi. Ko‘rinadiki, keltirilgan she’riy parchalarning barchasi uchun yuqoridagi Qudsiy hadislar asos bo‘lgan. Bundan tashqari, aynan shu masalada yana bir nechta hadislar rivoyat qilinadi. Molik rivoyat qilgan hadisga ko‘ra, Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhumo aytadi: “Rasulullоh sallallohu alayhi vasallamni ko‘rdim, Ka’bani tavof qilayotib, shunday der edilar: “Qandoq ham xushbo‘ysan, qandoq ham xushbo‘ydir sening hidlaring! Qandoq ham buyuksan, qandoq ham buyukdir sening hidlaring! Biroq, Muhammadning (sallallohu alayhi vasallam) joni tasarrufida bo‘lgan Zotga qasamki, Allohning huzurida bir mo‘minning hurmati sening hurmatingdan-da buyukdir!” [7]. Hadisning yana bir shakli shunday: “Bir kuni Ibn Umar Ka’baga nazar solib turib: “Qanchalar ham ulug‘san! Sening hurmating qanchalar ham ulug‘! Mo‘minning hurmati Allohning huzurida sendan ham ulug‘!” – dedi” [7].

Ko‘rinadiki, mo‘minning ko‘ngli, mo‘minning hurmati Ka’baning hurmatidan kam emas. Nima uchun mo‘minning qalbi aynan Ka’baga qiyos qilinmoqda. Musulmon olamidagi muqaddas manbalarda bu masalaga munosib javoblar mavjud. Ayni masalaga Muhammadayyub Azimovning “Qalbni Ka’baga o‘xshatilishining sababi” maqolasida quyidagicha izoh berilgan: “Alloh taolo Ka’baning sha’nini ulug‘lab, uni (har qanday nopoklikdan) poklab, uni “Baytulloh” deb nomladi va maxluqotlaridan birortasiga uni mulk qilib bermadi. Mo‘minning qalbi Alloh taoloning nuri, xazinasi bo‘lib, unda ma’rifat va (Allohning bandaga bergan) ne’matlarini anglash degan ma’dan berkitilgan. Alloh taolo ushbu xazinani biror kishiga mulk qilib bermagan, undan biror kishini xabardor ham qilmagan va uni hech kimga shundayligicha topshirib ham qo‘ymagan. Mo‘minning qalbi uning qabzasidadir... Ka’ba Allohning bayti bo‘lsa, mo‘minning qalbi uning xazinasi ichidagi bir nurdir. Ka’baga Allohdan o‘zga biror kimsa egalik qila olmagani kabi, mo‘min qalbi ham Rahmonning “qabza”-si ichida bo‘lib, unga Allohdan o‘zgasi egalik qila olmaydi. Ka’baning atrofidagi yer “haram” bo‘lgach, demak, qalbimizni o‘rab turgan ushbu ko‘ksimiz ham ushbu xazina va undagi boyliklar uchun “haram” misolidir...” [8]. Demak, harami sharifga tenglashtirilayotgan insonning qalbiga xursandchilik olib kirish, mantiqan, Ka’bani ulug‘lash, uni qayta tiklashga teng. Imom Tabaroniy rivoyat qilgan yana bir hadisda Payg‘ambarimiz Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam: Alloh taologa eng mahbub amal – musulmonning qalbiga xursandchilik kirgizishingiz, undan g‘am-tashvishlarini aritishingiz, zimmasidagi qarzini uzib berishingiz, ochligini ketkazishingizdir! – deganlar [9. B. 171]. Yana bir hadisda: “Alloh taologa farzlardan keyingi eng sevimli amal – musulmonning qalbiga xursandlik kirgizishdir” [9. B. 171], – deb marhamat qilingan.

Ko‘rinib turibdiki, Navoiyning baytida aslida yuqorida keltirilgan hadislarning mazmun-mohi-

yati nazmiy bayon etilmoqda. Shu bilan birga, shoirning mazkur baytda bu fikrlarning yuqorida sanab o‘tilgan hadislardan olinayotganiga ishora qilmagani Atoulloh Husayniy ta’rifidagi iqtibosning namunasi ekanligini anglatadi. Hadislardagi e’tirof etilayotgan mo‘min qalbining yuksak hurmat va ehtiromga sazovor ekanligi, hatto uning baytulloh deya sharaflanadigan Ka’badan-da yuksak qo‘yilayotgani masalasiga Alisher Navoiy ijodiy yondashgan holda mazkur fikrni badiiy bezaklar vositasida ifodalab bermoqda. Hadislarda inson qalbini Ka’baga tenglashtirish bilan birga unga xursandchilik olib kelishning ulug‘ fazilat ekanligi e’tirof etilayotgan bo‘lsa, Navoiy mazkur fikrni boyitib, dili vayron bo‘lgan, hayot qiyinchiliklaridan ezilgan kishining ko‘nglini ko‘tarish, xursand qilib, mushkullarini yengillatish go‘yo vayron bo‘lgan Ka’bani qayta tiklashdir, deya o‘ziga xos qiyosni yuzaga keltirgan. Bu o‘rinda ishlatilayotgan “*ko‘ngli buzuq*”, “*xotirin shod aylamoq*”, “*Ka’bani obod qilmoq*” kabi kalit so‘z va jumlalar o‘quvchiga baytning mazmun mohiyatini yuqoridagi hadislarga bog‘liq holda tushunish imkonini beradi. Bu holga izn berayotgan narsa esa har ikki matn – hadis va bayt orasida o‘zaro bog‘liqlik, ya’ni intertekstuallikdir.

Navoiy baytida Ibn Umarning Ka’baga nazar solib turib aytgan: “Qanchalar ham ulug‘-san! Sening hurmating qanchalar ham ulug‘! Mo‘minning hurmati Allohning huzurida sendan ham ulug‘!” – degan fikri mo‘minning qalbiga shodlik olib kirish Ka’bani obod qilishga teng tarzida talqin qilinayotgan bo‘lsa, shu hadisga “Hadis va Hayot” kitobida masalaning boshqa bir jihati urg‘ulangan holda izoh beriladi. Mazkur kitobda ushbu hadis: “Demak, mo‘min kishini behurmat qilish Ka’bai Mu’azzamani behurmat qilishdan ko‘ra yomon ekan. Shuning uchun zinhor va zinhor mo‘min kishini behurmat qilishga oshiqmaslik lozim” [10], – deya sharhlangan. Hadisning xuddi shu jihatiga muvofiq tarzda Boborahim Mashrab yozadi:

Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen,
Agar sen bir dilni buzsang,
yuzar Ka’ba buzulmasmu? [11. B. 189]

Mashrabning mazkur bayti Jaloliddin Rumiyning qalb tavofi Ka’ba tavofidan mashaqqatli ekanligi ta’kidlangan quyidagi misralari bilan hamohang:

Tavofi Baytul Xalil kori oson ast,
Tavofi baytul Jalil kori mardon ast [8].

Bu o‘rinda baytul Xalildan murod Ibrohim alayhissalom qurgan Ka’batulloh bo‘lsa, baytul Jalildan murod Alloh nazar solib turguvchi mo‘minning qalbidir. Ya’ni Rumiyning talqinicha, Ibrohim Halilulloh qurgan baytni – Ka’bani tavof qilish qiyin ish emas, Ollohning haqiqiy bayti bo‘lgan inson qalbini tavof qilish esa mardlarning ishidir. Bilamizki, tavof qilmoq tushunchasi, odatda, Ka’batullohga nisbatan ishlatiladi. Biroq Mashrab aytayotgan “tavofi olami dil”ning asosi, birinchidan, “Hadis va hayot” kitobidan keltirilgan sharhga mos keladi, ikkinchidan, Jaloliddin Rumiydan keltirilgan har ikki iqtibosdagi fikrlar bizning Mashrab misralarini shunga bog‘liq holda anglashimizga imkon beradi. Ya’ni, agar Navoiy bir dili vayron kimsaning ko‘ngliga shodlik olib kirishni “vayron bo‘lgan Ka’bani qayta tiklashga teng”lashtirayotgan bo‘lsa, Mashrab “kishilarning dilini vayron qilish yuzta Ka’bani buzishga teng” degan fikrni ilgari surmoqda. Mantiqan, har ikkala bayt ham bir-biriga muvofiq tarzda yuqorida sanab o‘tilgan hadislar bilan ham, o‘zaro ham intertekstual aloqaga kirishgan holda hadislar uchun o‘ziga xos sharh vazifasini o‘tamoqda. Har ikkala baytda ham fikrlar keltirilgan hadislardan ekanligiga ochiq ishora ko‘rinmaydi. Ularda mazkur hadislarga mos g‘oyaning ilgari surilayotgani va yuqorida aytilgan ayrim kalit so‘zlarning mavjudligi biz uchun baytlarni shu tarzda tushunishga ko‘mak beradi. Ba’zan oyat yoki hadislarga ishora qiluvchi birorta so‘z ishlatilmasligi mumkin. Biroq baytning mazmun-mohiyati unda ilgari surilayotgan g‘oyaning qaysidir oyat yoki hadis bilan o‘zaro aloqada ekkanligini anglatib turadi. Masalan, Xo‘janazar Huvaydoning quyidagi bayti kabi:

Qilma g‘amgin mo‘mineni,
ko‘nglini shod aylagil
Tongla mahshar dashtida g‘amnok
bo‘lmasdan burun [12. B. 119].

Baytdagi birinchi misraning birinchi yarmi yuqoridagi Mashrab baytiga hamohang ekan-

ligini, birinchi misraning ikkinchi yarmi esa Navoiy bayti bilan mos ekanligini anglash qiyin emas. Ya'ni "Qilma g'amgin mo'mineni – agar sen bir dilni buzsang", "(mo'mineni) ko'nglini shod aylagil – ko'ngli buzuqning xotirin shod aylasa". Baytning ikkinchi misrasi Huvaydoning salaflaridan farqli o'laroq o'rtaga tashlayotgan "mo'minni g'amgin qilsang, ko'nglini shod qilolmasang, qiyomat tongida g'amnok – g'amgin, qayg'uli bo'lib qolasan" tarzidagi xulosasidirki, buning ham o'ziga yarasha asosi mavjud. Mazkur asosni eslash uchun shu o'rinda yana bir hadisni to'laligicha keltirishga zarurat bor: "*Bir kuni Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam Oisha raziyallohu anhodan xursand bo'lib:*

– Ey Oisha, mendan xohlagan narsangni so'ra – dedilar.

Oisha raziyallohu anho juda ham ziyrak ayol edilar, bu fursatni qo'ldan boy bermaslik uchun eng yaxshi narsani so'rashni qasd qildilar va:

– Bu borada otam bilan maslahatlashsam maylimi? – deb so'radi.

Keyin Abu Bakr raziyallohu anhuning huzuriga borib voqeani bayon qildi. Abu Bakr raziyallohu anhu:

– Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam me'rojga chiqqanlarida Alloh taolo u zotga sirlarni aytgan. O'shalardan birini aytib berishlarini so'ra, – dedi. Oisha onamiz o'sha narsani so'radilar. Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam:

– Robbim menga me'roj kechasida "Mening nazdimda mo'minning darajasi shu darajada yuqoriki, qaysi bir mo'min boshqa bir mo'minning qalbiga xursandchilik solsa, albatta jannatiy bo'ladi" dedi, – dedilar.

Oisha raziyallohu anho xursand bo'lib Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhuga bu gapni yetkazgan edi, Abu Bakr qattiq yig'ladi. Oisha raziyallohu anho:

– Nega yig'laysiz, axir bu xursandchilik xabar emasmi? – dedi hayron bo'lib.

– Bu degani, "Mo'minning qalbi Alloh taoloning nazdida shu darajada qadrliki, unga ozor yetkazgan kimsa, do'zaxiydir" – degani bo'ladi, – dedi Abu Bakr raziyallohu anhu [10].

Demak, ko'rinadiki, Huvaydoning yuqoridagi bayti ayni hadisning o'ziga xos nazmiy bayonidir. Baytda bir mo'minning boshqa bir mo'min qalbiga xursandchilik solishi uning albatta jannatiyligiga, mo'min qalbiga ozor yetkazgan kimsa esa do'zaxiyligiga sabab bo'lishi haqidagi hukm ilgari surilmoqda va bunga albatta yuqoridagi hadis asos vazifasini o'tamoqda. Insonlarni jannatiy yoki do'zaxiy ekanligi hukm qilinadigan kun esa mahshar kunidir. Demak, Huvaydoning "*Tongla mahshar dashtida g'amnok bo'lmasdan burun*" degan misrasidan mo'minni g'amgin qilgan kishi ham, ko'nglini shod qilgan kishi ham aynan mana shu mahshar tongida o'z ulushini oladi, shu paytda g'amga botib, attang qilib qolmasdan burun mo'minlarning ko'ngliga shodlik olib kirishga ulgurib qolish kerak, degan fikrni anglash mumkin.


Navoiyning birgina baytini sharhlash asnosida bir necha bayt va bir necha hadisga murojaat qilinishiga sabab mazkur baytlar keltirilgan ayrim hadislarga to'laligicha, ayrimlari esa hadisning qaysidir uzvi bilan, yana ayrimlari uchun umuman mazmun-mohiyati jihatidan aloqador ekanligidir. Ko'rinadiki, keltirilgan baytlar shunchaki to'qib chiqarilgan emas, ularga asos – podtekst vazifasini o'tovchi manbalar bor. Albatta, mumtoz she'riyatda ham adabiy ta'sir mavjud. Ya'ni shoirlar bir-birlarining satrlaridan ham ta'sirlanishi, ilhomlanishi, o'zaro ijodiy musobaqaga kirishishlari tabiiy hol. Zotan, biz yuqorida keltirib o'tgan hamda islom va tasavvuf g'oyalari ilgari surilgan barcha misralarning mualliflari islomiy e'tiqoddagi, tasavvufda ham o'ziga yarasha maqomga erishgan, islom aqoyididan xabardor kishilar edi. Shunga muvofiq aytish mumkinki, mazkur shoirlarning barchasi uchun keltirganimiz kabi hadislar birlamchi manba vazifasini o'tagan. Natijada she'riy misralarning barchasi bilan tilga olib o'tilgan hadislar orasida ham, o'zaro bir-biri bilan ham bog'liqlik – intertekstuallik yuzaga kelgan. Ehtimol, mumtoz she'riyatimiz xazinasidan bu kabi misralardan yana o'nlab, yuzlab topish mumkindir. Aytish mumkinki, mazkur hadislarda va unga ergashib yaratilgan she'riy misralarda islom e'tiqodidagi kishilar uchun to qiyomatgacha qonuniyat maqomidagi masala tilga olingan. Demak, bu mavzu faqat mumtoz adabiyot deb atalgan davrgagina xos bo'lmay, keyingi zamonaviy adabiyotimiz vakillari ijodida ham davom etishi tabiiy, shuning uchun zamonaviy she'riyatda ham bu mavzu juda go'zal tarzda tilga olingan o'rinlar ko'p uchraydi. Jumladan, yangi davr o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biri Erkin Vohidovning "Ka'batulloh" she'rida ayni mavzu shunday talqin qilingan:

Imonu namozu ro‘zayu zakot –
Farzin ado etmay, el ko‘zi uchun –
Hoji degan nomni olmoq bo‘lgan zot –
Qulog‘iga gapim, bir o‘zi uchun:

Nafi yo‘q zar sochib gunoh yuvishning,
Rahmon ham, jabbor ham yolg‘iz Ollohdir.
Bir dardmand qarindosh,
bir muhtoj qo‘shning
Ozurda yuragi Ka’batullohdir [13. B. 564].

Yuqorida aytilganidek, bir necha muallifning bir mavzu atrofida fikr yuritilgan bir necha she’rlarini o‘qisangiz, mazkur shoirlarning badiiy mahoratidan, ifoda yo‘sinidan kelib chiqib, ularning har biridan o‘zgacha zavq olaverasiz, o‘zgacha ma’no-mohiyat anglayverasiz. Erkin Vohidov misralarida ilgari surilayotgan mavzu ham mumtoz shoirlar tilga olayotgan mavzu bilan hamohang. Har bir shoir ma’lum bir mavzuda qalam tebratar ekan, o‘sha an’anadagi masalaga o‘z davri nuqtai nazaridan yondashadi. Erkin Vohidov misralarida ham, zamon bilan hamnafas holda, hoji degan nom olish uchungina, el ko‘ziga hojilik amalini bajarish bilan inson farzni ado qilgan yoki ezgu amal bajargan bo‘lib qolmaydi; bunday soxtalikka yo‘l qo‘ygandan ko‘ra, dardmand qarindoshning, muhtoj qo‘shnining ko‘nglini olmoq afzal ekanligi, sababi ularning yuragi – qalbi Ka’batullohga teng ekanligi ta’kidlanmoqda. Bu esa shoirning salaflari tilga olgan g‘oyaning yana bir yangicha talqini, yangi bir ko‘rinishdagi o‘ziga xos ifodasidir.

Yuqoridagi barcha fikrlarni umumlashtirgan holda, iqtibos san’ati qo‘llangan, muayyan oyat yoki hadis asosida yaratilgan badiiyat namunalarining bir-biri bilan o‘zaro intertekstual aloqasini quyidagicha sxema orqali ifoda etish mumkin:



Chizmadan ko‘rinadiki, keltirilgan barcha she’riy misralarda hadis va qudsiy hadisga oid belgilar u yoki bu darajada tanib olish mumkin bo‘lgan alfozda mavjud va bog‘liq bo‘ladi. Demak, mazkur she’riy misralar, mohiyatan intertekst, ya’ni “qo‘shtirnoqsiz sitata” (R.Bart)lardir. Tanib olish mumkin bo‘lgan holatni yuzaga keltirayotgan omillar esa ularda ishlatilayotgan “*ko‘ngli buzuqning xotirin shod ayla*”, “*Ka’ba vayron o‘lsa, obod aylagay*”, “*Bir g‘arib ko‘ngilni qila olsang shod*”, “*Tavofi olami dil qil*”, “*bir dilni buzsang*”, “*yuzar Ka’ba buzulmasmu*”, “*Qilma g‘amgin mo‘mineni*”, “*ko‘nglini shod aylagil*”, “*tongla mahshar dashtida g‘amnok bo‘lmasdan burun*” kabi jumlalardir. Iqtibos san’ati qo‘llangan o‘rinlarda, odatda, ijodkor uchun birlamchi manba vazifasini o‘tayotgan oyat, hadisi qudsiy yoki hadislarda ilgari surilayotgan g‘oya islom e’tiqodida bo‘lgan kishilar uchun umumiy bir qonuniyat maqomida bo‘lishini yuqorida aytdik. Ijod ahli esa mazkur g‘oyani oddiy xalqqa, o‘quvchi ommaga turli badiiy bezaklar vositasida taqdim qilishga harakat qiladi. Ayni mavzuga murojaat qilayotgan shoirlar soni esa bir nech-

ta bo‘lishi mumkin. Tabiiyki, bunday sharoitda har bir shoir o‘ziga xoslikka – originallikka intiladi. Salaflari murojaat qilgan masalani ularga o‘xshamagan tarzda, iloji bo‘lsa, ulardan o‘tkazibroq bayon qilishga harakat qiladi. Bu hol, birinchidan, oyat yoki hadislarda tilga olinayotgan masalani o‘quvchiga osonroq, tushunarliroq, ta’sirli shaklda yetib borishiga xizmat qilsa, ikkinchidan, har bir shoirning badiiy mahoratini belgilaydi va har safar yangi-yangi badiiyat namunalari yaratilib, har biri o‘quvchiga o‘zgacha estetik zavq bag‘ishlaydi.

Adabiyotlar:

1. *Қуронов Д. Мамажонов З. Шералиева М.* Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 400 б.

2. *Ҳусайний Атоуллоҳ*. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.

3. *Навоий А*. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2013. – 764 б.

4. *Имом Ғаззолий.* Қирқ ҳадиси қудсий. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008. – 20 б.

5. *Румий Ж*. Маснавийи маънавий. 1-китоб, 3-жуз. – Тошкент: “Hilol-Nashr” нашриёт-матбааси, 2017. – 538 б.

6. *Навоий А.* Ҳайрат ул-аброр. /Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 7-том. – Тошкент: Фан, 1991. – 422 б.

7. Zikr ahlidan so‘rang [Интернет манба]. https://savollar.islom.uz (Мурожаат этилган сана: 07.09.2023)

8. *Азимов М.* Қалбни Каъбага ўхшатилишининг сабаби. [Интернет манба]. URL: https://mehrob.uz. (Мурожаат этилган сана: 14.09.2023)

9. “Олтин силсила” – “Саҳиҳул Бухорий”. 1-жуз. /Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ва таржимонлар гуруҳи. – Тошкент: “Hilol-Nashr” нашриёт-матбааси, 2023. – 672 б.

10. Маърифат маскани. [Интернет манба]. URL: https://muslimun.uz (Мурожаат этилган сана: 25.09.2023)

11. *Машраб.* Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 608 б.

12. *Хўжаназар Ҳ.* Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 304 б.

13. *Воҳидов Э*. Танлангнан асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2016. – 596 б.

ON THE ART OF QUOTATION AND INTERTEXTUALITY

Z.A. Mamajonov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 85-92.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: intertextuality, intertext, subtext, classical poetry, poetic art, quotation, verses of the Holy Qur’an, hadith Qudsi and hadith

The article discusses the unique aspects of the art of quotation, one of the widely used poetic arts in classical poetry, the role and importance of this art in the development of the art of poetic verses. The transfer of the ideas mentioned in the Holy Qur’anic verses, hadith Qudsi and hadiths to poetry is analyzed. The peculiarities of intertextuality in classical literature are described. Verses of Jalaluddin Rumi, Alisher Navai, Mashrab, Huvaido were used to found the opinions expressed on the topic.

There are several responsibilities in front of the poet who is taking up the subject in the tradition. The most important thing is not to repeat the predecessor exactly, and the latter should find a way of expression that is easier than the predecessor. To be able to say something new on a traditional subject requires a very broad outlook, great skill, and creativity. This recurring idea – the theme creates intertextuality. Poststructuralists understand the term intertextuality very broadly. According to him,

"literature, culture, society, history, human – all of these can be read and heard in the form of a text. Based on this, human culture is fully understood as one intertext, which serves as a basis (subtext) for any newly created text. Although the term "intertextuality" has not been around for so long, the phenomenon itself is actually very old. Specific features of certain genres or certain artistic representational devices, literary influences or traveling plot concepts and various other conventions, which are also common in classical literature, are essentially different manifestations of intertextuality. In most cases, the places where topics related to each other are very close to each other, such as the unique promotion of moral issues characteristic of Eastern poetry, artistic interpretations of issues related to spirituality in various forms, are considered to be manifestations of intertextuality related to the theme of the work. In the course of its application, the poet may turn to another text in order to prove and explain his idea – that is, he may quote, apply or refer to it in a changed form – based on intertextual communication – intertextuality. For example, in the art of quote, the poet refers to the Holy Qur'anic chapters or hadiths to prove and explain his point. The article referred to several verses and several hadiths by commenting on one verse of Navai and explained whether they are related in whole or in part or in content. In the places where the art of quote is used, usually the verse that serves as the primary source for the creator, the holy hadith or the idea put forward in the hadiths has the status of a common law for people who believe in Islam. Creative people present this idea to the common people, the reading public, through various artistic decorations. Every poet addressing the same topic strives for uniqueness and originality. He tries to explain the issue addressed by his predecessors in a different way, if possible, beyond them, and every time new examples of art are created, each of them gives the reader a special aesthetic pleasure.

References:

1. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. (2010) *Adabiyotshunoslik lug'ati* [Dictionary of literary studies]. Tashkent: Akademnashr.

2. Husayniy, Atoulloh. (1981) *Badoyi'u-s-sanoiy* [Badoiu-s-sanoiy]. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

3. Navoi, A. (2013) *To'la asarlar to'plami* [A complete collection of works]. In 10 volumes. Vol. 3. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

4. Imam Ghazzali. (2008) *Qirq hadisi qudsiy* [Forty hadiths are qudsiy]. Tashkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.

5. Rumi, Jalaluddin. (2017) Masnaviyi ma'naviy [Masnavi is spiritual]. Book 1. Vol. 3. Tashkent: "Hilol-Nashr" nashriyot-matbaasi.

6. Navoi, A. (1991). *Hayrat ul-abror* [Khairat ul-Abrar]. A perfect collection of works. In 20 volumes. 7-volumes. Tashkent: Fan

7. *Zikr ahlidan so'rang* [Ask the people of Zikr]. [Online]. URL: https://savollar.islom.uz (Date of Access: 07.09.2023)

8. Azimov, M. *Qalbni ka'baga o'xshatilishining sababi* [The reason why the heart is likened to the Kaaba]. [Online]. URL: https://mehrob.uz. (Date of Access: 14.09.2023)

9. Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf and a team of translators. (2023) "*Oltin silsila – Sahihul Buxoriy*" ["Golden chain" – "Sahihul Bukhari"]. Vol. 1. Tashkent: "Hilol-Nashr" nashriyot-matbaasi.

10. *Ma'rifat maskani* [Place of Enlightenment]. [Online]. URL: https://muslimun.uz (Date of Access: 25.09.2023)

11. Mashrab. (2006) *Devon* [Divan]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

12. Kho'janazar, X. (2007) *Devon* [Divan]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

13. Vohidov, E. (2016) *Tanlangnan asarlar* [Selected works]. Tashkent: Shark.

Muallif haqida ma'lumot:

MAMAJONOV Zokirjon Ahmadjonovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti. E-mail: zokir_m@rambler.ru